FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
10 (2)-son

UDK: 159.923.2:316.356.2

Nazaraliyeva Marxabo Xayitboyevna,
Renessans ta’lim universiteti “Pedagogik ta’lim va psixologiya” kafedrasi dotsenti, PhD

O‘Z-O‘ZIGA MUNOSABAT VA TANQID QILINISHDAN QO‘RQUV XUSUSIYATLARINING OILAVIY HOLATGA KO‘RA NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘z-o‘ziga munosabat va tanqid qilinishdan qo‘rquvning oilaviy holatga ko‘ra namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 1052 nafar respondent (167 nafar ajrashgan, 452 nafar turmush qurgan va 433 nafar turmush qurmagan) V.V. Stolin va S.R. Panteleyevning “O‘z-o‘ziga munosabat” metodikasi hamda M.R. Learining “Tanqid qilinishdan qo‘rquv” metodikasi bo‘yicha so‘rovdan o‘tkazildi. Kruskal-Uollis mezoni asosidagi tahlilga ko‘ra, ajrashganlarda o‘ziga sadoqat, o‘z-o‘ziga munosabat, ichki ziddiyat, o‘zini qadrlash va tanqid qilinishdan qo‘rquv ko‘rsatkichlari eng yuqori, samimiylik va o‘zini idora qilish esa eng past ekanligi aniqlandi ($p<0,01$). Turmush qurmaganlarda samimiylik va o‘zini idora qilish yuqori, o‘z-o‘ziga ishonch, ichki ziddiyat va tanqiddan qo‘rquv esa past bo‘ldi. Turmush qurganlarda o‘zini qadrlash eng past darajada qayd etildi. O‘z-o‘zini ayblash bo‘yicha guruhlar o‘rtasida farq kuzatilmadi. Natijalar oilaviy holatning shaxsning o‘ziga munosabati va ijtimoiy baholanishga sezgirligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: o‘z-o‘ziga munosabat, tanqid qilinishdan qo‘rquv, oilaviy holat, ajrashish, nikoh, ichki ziddiyat, o‘zini qadrlash.

ПРОЯВЛЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ САМООТНОШЕНИЯ И СТРАХА КРИТИКИ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СЕМЕЙНОГО ПОЛОЖЕНИЯ

Аннотация. В статье анализируются особенности проявления самоотношения и страха критики в зависимости от семейного положения. В исследовании участвовали 1052 респондента (167 разведённых, 452 состоящих в браке и 433 не состоящих в браке), обследованных с помощью методики исследования самоотношения В.В. Столина и С.Р. Пантелеева и методики «Страх негативной оценки» М. Лири. Согласно анализу по критерию Краскела–Уоллиса, у разведённых наиболее высоки самопривязанность, отражённое самоотношение, внутренняя конфликтность, самоценность и страх критики, а открытость и саморуководство – наиболее низки ($p<0,01$). У не состоящих в браке выше открытость и саморуководство, но ниже самоуверенность, внутренняя конфликтность и страх критики. У состоящих в браке выявлен наиболее низкий уровень самоценности. По шкале самообвинения различий не обнаружено. Результаты подтверждают значимую связь семейного положения с самоотношением и чувствительностью к социальной оценке.

Ключевые слова: самоотношение, страх критики, семейное положение, развод, брак, внутренняя конфликтность, самоценность.

MANIFESTATION OF SELF-ATTITUDE AND FEAR OF CRITICISM ACCORDING TO MARITAL STATUS

Abstract. This article examines how self-attitude and fear of criticism manifest depending on marital status. A total of 1,052 respondents (167 divorced, 452 married and

433 never married) completed V.V. Stolin and S.R. Panteleev's Self-Attitude Questionnaire and M.R. Leary's Fear of Negative Evaluation Scale. Kruskal–Wallis analysis showed that divorced participants had the highest scores on self-attachment, reflected self-attitude, internal conflict, self-worth and fear of criticism, and the lowest scores on openness and self-guidance ($p < .01$). Never-married participants showed high openness and self-guidance but low self-confidence, internal conflict and fear of criticism. Married participants had the lowest self-worth. No group differences were found in self-blame. The findings confirm that marital status is significantly associated with self-attitude and sensitivity to social evaluation.

Keywords: self-attitude, fear of criticism, marital status, divorce, marriage, internal conflict, self-worth.

KIRISH

Oila shaxs hayotidagi muhim ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, uning oilaviy holati insonning o‘ziga bo‘lgan munosabati, o‘zini baholashi va ijtimoiy muhitdagi xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Turmush qurish, oilaviy hayot kechirish yoki ajrashish shaxsning «Men» obraziga, o‘ziga bo‘lgan ishonchiga hamda atrofdagilarning fikriga nisbatan sezgirligiga turlicha ta’sir qilishi mumkin. Ayniqsa, oila muhim ijtimoiy qadriyat hisoblangan O‘zbekiston jamiyatida oilaviy holat shaxsning ijtimoiy mavqei va o‘zini idrok etishida muayyan ahamiyat kasb etadi.

V.V. Stolin konsepsiyasiga ko‘ra, o‘z-o‘ziga munosabat shaxsning o‘z «Men»iga nisbatan shakllangan barqaror hissiy-baholovchi munosabati bo‘lib, o‘zini hurmat qilish, qabul qilish, qadrlash, o‘ziga qiziqish va o‘ziga ishonch kabi tarkibiy qismlarni qamrab oladi. Tanqid qilinishdan qo‘rquv esa shaxsning boshqalar tomonidan salbiy baholanishidan xavotirlanishi, tanqidni kutishi va bunday vaziyatlardan qochishga intilishida namoyon bo‘ladi. Ushbu psixologik xususiyatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, shaxsning o‘ziga nisbatan ishonchi va barqaror munosabati uning ijtimoiy baholashga sezgirligiga ta’sir qilishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda o‘z-qadr-qimmat va oilaviy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik keng o‘rganilgan. Biroq o‘z-o‘ziga munosabatning alohida tarkibiy qismlari hamda tanqid qilinishdan qo‘rquvning ajrashgan, turmush qurgan va turmush qurmagan shaxslarda birgalikda qiyosiy tahliliga, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqotning maqsadi 1052 nafar respondent ishtirokida o‘z-o‘ziga munosabat va tanqid qilinishdan qo‘rquv xususiyatlarining oilaviy holatga ko‘ra namoyon bo‘lishini aniqlash hamda guruhlar o‘rtasidagi psixologik farqlarni tahlil qilishdan iborat. Ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslanib, ajrashish tajribasi o‘z-o‘ziga munosabatdagi ichki ziddiyatlarning kuchayishi va tanqidga nisbatan sezgirlikning ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi tadqiqot gipotezasi sifatida ilgari surildi.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘z-qadr-qimmat va yaqin shaxslararo munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik psixologiya fanida keng o‘rganilgan. Harris va Orth (2020) [5] tomonidan o‘tkazilgan uzunlamasiga tadqiqotlar meta-tahlili o‘z-qadr-qimmat va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasida o‘zaro ta’sir mavjudligini ko‘rsatgan. Ya’ni, ijobiy ijtimoiy munosabatlar shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabatini mustahkamlaydi, o‘z-qadr-qimmatning yuqori bo‘lishi esa munosabatlar sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Erol va Orth (2016) [3] ham yuqori o‘z-qadr-qimmat romantik munosabatlar sifatining yaxshilanishi bilan bog‘liqligini aniqlagan. Luciano va Orth (2017) [7] tadqiqotida esa o‘z-qadr-qimmatning yuqoriligi munosabatlarni shakllantirishga, uning pastligi esa munosabatlarning buzilish xavfiga bog‘liqligi qayd etilgan. Shu bilan birga, nikohga kirishning o‘zi o‘z-qadr-qimmat darajasini sezilarli o‘zgartirmasligi ta’kidlangan.

Oilaviy hayotdagi o‘zgarishlarning shaxs psixologik farovonligiga ta’siri ham tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lgan. Van Scheppingen va Leopold (2020) [14] ajrashishdan oldingi davrda hayotdan qoniqish pasayishi, ajrashishdan keyin esa uning asta-sekin tiklanishini aniqlagan. Bühler, Krauss va Orth (2021) [1] munosabatlardan qoniqish darajasi hayot davomida turli bosqichlarda o‘zgarib borishini tizimli sharh va meta-tahlil asosida yoritgan. Orth, Erol va Luciano (2018) [9] o‘z-qadr-qimmatning yosh davrlariga bog‘liq rivojlanishini aniqlagan bo‘lsa, Orth va Robins (2022) [10] uning salomatlik, shaxslararo munosabatlar va umumiy farovonlikdagi ahamiyatini asoslab bergan.

Tanqid qilinishdan va salbiy baholanishdan qo‘rquvga oid tadqiqotlarda ushbu holatning shaxsiy xavotir, perfektsionizm va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Rais va Norton (2024) [11] baholanishdan qo‘rquv perfektsionizm va ijtimoiy xavotir o‘rtasidagi bog‘liqlikda vositachi omil bo‘lishi mumkinligini aniqlagan. Cook, Moore, Bryant va Phillips (2022) [2] meta-tahlilida ijobiy va salbiy baholanishdan qo‘rquvning ijtimoiy xavotir bilan bog‘liqligi yoritilgan. Shafique, Gul va Raseed (2017) [12] esa salbiy baholanishdan qo‘rquvning perfektsionizm va subyektiv idrok etilgan stress bilan o‘zaro aloqasini o‘rgangan.

O‘z-o‘ziga munosabat va shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlari Flett, Hewitt, Nepon, Sherry va Smith (2022) [4] tadqiqotida ham tahlil qilingan. Mualliflar atrofdagilarning mukammallik talablariga ortiqcha bog‘lanish shaxsda salbiy psixologik oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkinligini ta’kidlagan. Stoeber, Smith, Saklofske va Sherry (2021) [13] bunday talablar shaxslararo munosabatlardagi qiyinchiliklar bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan. Khossousi va hammualliflar (2024) [6] meta-tahlilida perfektsionistik xavotirlar bilan past o‘z-qadr-qimmat o‘rtasida barqaror bog‘liqlik aniqlangan. Neff (2023) [8] esa o‘ziga nisbatan mehr-shafqatni sog‘lom va barqaror ijobiy o‘z-o‘ziga munosabatni shakllantirishning muhim omili sifatida baholagan.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar oilaviy munosabatlar, o‘z-qadr-qimmat va ijtimoiy baholanishdan qo‘rquv o‘rtasida muayyan psixologik bog‘liqlik

mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq o‘z-o‘ziga munosabatning tarkibiy qismlari va tanqid qilinishdan qo‘rquv ko‘rsatkichlarini turli oilaviy holatdagi shaxslarda birgalikda qiyosiy o‘rganishga, xususan, Markaziy Osiyo sharoitida, yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Mazkur ilmiy bo‘shliq tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi hamda uning ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishtirokchilari. Tadqiqotda jami 1052 nafar respondent ishtirok etdi. Oilaviy holatiga ko‘ra ular uch guruhga ajratildi: ajrashganlar (167 nafar), turmush qurganlar (452 nafar) va turmush qurmaganlar (433 nafar). So‘rovda ishtirok etish ixtiyoriy va anonim tarzda tashkil etildi.

Qo‘llanilgan metodikalar. Tadqiqotda ikkita standartlashtirilgan metodika qo‘llanildi: V.V. Stolin va S.R. Panteleevning “O‘z-o‘ziga munosabat” metodikasi (samimiylik, o‘z-o‘ziga ishonch, o‘zini idora qilish, o‘z-o‘ziga munosabat, o‘zini qadrlash, o‘zini qabul qilish, o‘ziga sadoqat, ichki ziddiyat va o‘z-o‘zini ayblash kabi to‘qqiz tarkibiy qismni o‘lchaydi) hamda M.R. Learining “Tanqid qilinishdan qo‘rquv” metodikasi (boshqalar tomonidan salbiy baholanishdan qo‘rqish darajasini aniqlaydi).

Tadqiqot jarayoni va tahlil usullari. Barcha metodikalar bitta so‘rov jarayonida qo‘llanildi. Uch mustaqil guruh o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun parametrik bo‘lmagan Kruskal-Uollis H-mezoni qo‘llanildi; jadvallarda guruhlarning o‘rtacha ranglari keltirilgan. O‘rtacha rangning yuqoriligi ko‘rsatkichning kuchliroq ifodalanganligini bildiradi. Statistik ishonchlilik $p<0,01$ darajasida baholandi.

NATIJALAR

1-jadvalda o‘z-o‘ziga munosabat metodikasining to‘qqiz tarkibiy qismi bo‘yicha oilaviy holati turlicha bo‘lgan guruhlar o‘rtasidagi farqlar keltirilgan.

1-jadval

O‘z-o‘ziga munosabat metodikasining oilaviy holat omiliga ko‘ra tafovutlari (Kruskal-Uollis mezoni, n=1052)

Shkalalar	O‘rtacha rang			Statistik qiymat	
	Ajrashganlar (n=167)	Turmush qurganlar (n=452)	Turmush qurmaganlar (n=433)	H	p
Samimiylik	481,65	540,26	553,86	11,94	0,003**
O‘z-o‘ziga ishonch	539,77	547,64	469,89	19,10	0,001**
O‘zini idora qilish	483,93	539,94	552,18	11,23	0,004**
O‘z-o‘ziga munosabat	560,11	548,03	469,36	19,48	0,003**
O‘zini qadrlash	555,74	442,86	538,55	14,53	0,003**
O‘zini qabul qilish	551,27	538,42	485,77	10,21	0,006**

Shkalalar	O‘rtacha rang			Statistik qiymat	
	Ajrashgan-lar (n=167)	Turmush qurganlar (n=452)	Turmush qurmagan-lar (n=433)	H	p
O‘ziga sadoqat	561,93	549,26	466,48	20,95	0,001**
Ichki ziddiyat	556,62	543,75	476,85	15,31	0,001**
O‘z-o‘zini ayblash	538,45	529,16	512,52	2,84	0,242

Izoh: ** – $p<0,01$

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘z-o‘ziga munosabatning sakkizta tarkibiy qismi bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar mavjud. Ajrashgan-larda o‘ziga sadoqat (561,93), o‘z-o‘ziga munosabat (560,11), ichki ziddiyat (556,62), o‘zini qadrlash (555,74) va o‘zini qabul qilish (551,27) eng yuqori, samimiylik (481,65) va o‘zini idora qilish (483,93) esa eng past ko‘rsatkichga ega.

Ajrashganlardagi bunday ziddiyatli manzara psixologik himoya mexanizmla-rining faollashuvi bilan izohlanadi. Ajrashish ko‘pincha shaxsiy muvaffaqiyatsizlik sifatida kechiriladi va jamiyatda unga nisbatan salbiy qarash hali ham saqlanib qol-gan. Bunday sharoitda shaxs o‘z “Men”ining yaxlitligini saqlash uchun o‘zini qadrlashini ta’kidlab ko‘rsatadi, o‘zgarishga qarshilik qiladi (o‘ziga sadoqat) va ayni paytda atrofdagilardan yopiladi (samimiylikning pastligi). Ichki ziddiyatning yuqoriligi ajrashish tajribasi hali to‘liq qayta ishlanmaganligini, o‘zini idora qilish-ning pastligi esa hayot ustidan nazorat hissining zaiflashganini ko‘rsatadi. Bu natija Fan Sxeppingen va Leopold (2020) [14] tomonidan aniqlangan, ajrashish davrida hayotdan qoniqishning pasayishi va keyinchalik asta-sekin tiklanishi haqidagi xulosaga mos keladi.

Turmush qurmaganlar esa samimiylik (553,86) va o‘zini idora qilish (552,18) bo‘yicha eng yuqori, o‘z-o‘ziga ishonch (469,89), o‘z-o‘ziga munosabat (469,36), o‘ziga sadoqat (466,48) va ichki ziddiyat (476,85) bo‘yicha esa eng past ko‘rsat-kichga ega. Bu ularning asosan yoshroq bo‘lishi, hali jiddiy oilaviy sinovlarga duch kelmaganligi va o‘ziga ishonchning shakllanish jarayonida ekanligi bilan izohlanadi; Ort va hamkasblari (2018) [9] ham o‘z-qadr-qimmatning yosh o‘tishi bilan oshib borishini ko‘rsatishgan. Turmush qurganlarda esa o‘zini qadrlash eng past (442,86) bo‘lib, buni oilaviy hayotda shaxs o‘z ehtiyojlarini oila manfaatlaridan keyinga qo‘yishi, o‘zini mustaqil shaxs sifatida emas, balki rollar orqali baholashi bilan izohlash mumkin. Bu Luchiano va Ort (2017) [7] tomonidan aniqlangan, tur-mush qurishning o‘zi o‘z-qadr-qimmatni oshirmasligi haqidagi xulosaga mos keladi. O‘z-o‘zini ayblash bo‘yicha farq yo‘qligi esa bu xususiyat oilaviy holatdan ko‘ra shaxsiy tarix va tarbiyaga bog‘liqligini ko‘rsatadi. 2-jadvalda tanqid qilinishdan qo‘rquv bo‘yicha natijalar keltirilgan.

2-jadval

Tanqid qilinishdan qo‘rquv metodikasining oilaviy holat omiliga ko‘ra tafovutlari (Kruskal-Uollis mezoni, n=1052)

Shkalalar	O‘rtacha rang			Statistik qiymat	
	Ajrashgan-lar (n=167)	Turmush qurganlar (n=452)	Turmush qurmagan-lar (n=433)	H	p
Tanqid qilinishdan qo‘rquv	557,36	542,94	476,47	15,86	0,001**

Izoh: ** – p<0,01

Tanqid qilinishdan qo‘rquv ajrashganlarda eng yuqori (557,36), turmush qurganlarda biroz pastroq (542,94), turmush qurmaganlarda esa eng past (476,47) darajada namoyon bo‘ldi. Ajrashganlardagi yuqori qo‘rquvni ularning doimiy ijtimoiy baholash ostida yashashi bilan izohlash mumkin: atrofdagilarning “nima uchun ajrashdi” degan savollari va yashirin tanqidi shaxsni baholanishga nisbatan o‘ta sezgir qilib qo‘yadi. Bu natija 1-jadvaldagi o‘z-o‘ziga munosabat (ya’ni boshqalarning menga munosabati haqidagi tasavvur) ko‘rsatkichining ajrashganlarda eng yuqori ekanligi bilan ham uyg‘un. Turmush qurmaganlarda esa tanqiddan qo‘rquvning pastligi ularning hali oilaviy hayot bilan bog‘liq ijtimoiy bosimni kam his qilishi bilan bog‘liq. Rais va Norton (2024) [11] ham baholanishdan qo‘rquvning shaxsning ichki xavotiri bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatishgan.

XULOSA

Ushbu tadqiqot o‘z-o‘ziga munosabat va tanqid qilinishdan qo‘rquvning oilaviy holatga ko‘ra namoyon bo‘lish xususiyatlarini 1052 nafar respondent ishtirokida tahlil qildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ajrashganlarda o‘z-o‘ziga munosabat ziddiyatli xarakterga ega: o‘zini qadrlash va o‘ziga sadoqat yuqori bo‘lsa-da, ichki ziddiyat va tanqidga sezgirlik ham yuqori, samimiylik va o‘zini idora qilish esa past. Bu xulosa Xarris va Ort (2020) [5] hamda Fan Sxeppingen va Leopold (2020) [14] tomonidan tasvirlangan, yaqin munosabatlardagi o‘zgarishlarning o‘z-qadr-qimmat va farovonlikka ta’siri haqidagi qarashlarni tasdiqlaydi.

Turmush qurmaganlarda o‘z-o‘ziga munosabat ochiqlik va o‘zini boshqarish bilan tavsiflanadi, biroq o‘ziga ishonch hali to‘liq shakllanmagan. Turmush qurganlarda esa o‘zini qadrlash eng zaif bo‘g‘in bo‘lib chiqdi. Tanqid qilinishdan qo‘rquvning ajrashganlarda eng yuqori ekanligi esa oilaviy holat va ijtimoiy baholanishga sezgirlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Amaliy jihatdan, ushbu natijalar oilaviy maslahat va psixokorreksion ish uchun muhim ahamiyatga ega: ajrashganlar bilan ishlashda ajrashish tajribasini qayta ishlash, ichki ziddiyatni kamaytirish va ijtimoiy baholanishga sezgirlikni pasaytirishga, turmush qurganlar bilan ishlashda esa oilaviy rollardan tashqarida ham o‘z shaxsiyatining qadrini his qilishga yordam berish lozim. O‘ziga nisbatan mehr-

shafqatni rivojlantirish bu jarayonda samarali vosita bo‘lishi mumkin (Neff, 2023) [8]. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu xususiyatlarni yosh va jinsni hisobga olgan holda, shuningdek ajrashishdan oldingi va keyingi davrlarda uzunlamasina dizayn asosida o‘rganish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bühler, J. L., Krauss, S., & Orth, U. (2021). Development of relationship satisfaction across the life span: A systematic review and meta-analysis. Psychological Bulletin, 147(10), 1012–1053.
2. Cook, S., Moore, S., Bryant, C., & Phillips, L. (2022). The role of fear of positive evaluation in social anxiety: A systematic review and meta-analysis. Clinical Psychology: Science and Practice, 29(4), 352–369. https://doi.org/10.1037/cps0000082
3. Erol, R. Y., & Orth, U. (2016). Self-esteem and the quality of romantic relationships. European Psychologist, 21(4), 274–283. https://doi.org/10.1027/1016-9040/a000259
4. Flett, G. L., Hewitt, P. L., Nepon, T., Sherry, S. B., & Smith, M. (2022). The destructiveness and public health significance of socially prescribed perfectionism: A review, analysis, and conceptual extension. Clinical Psychology Review, 93, 102130. https://doi.org/10.1016/j.cpr.2022.102130
5. Harris, M. A., & Orth, U. (2020). The link between self-esteem and social relationships: A meta-analysis of longitudinal studies. Journal of Personality and Social Psychology, 119(6), 1459–1477.
6. Khossousi, V., Greene, D., Shafran, R., Callaghan, T., Dickinson, S., & Egan, S. J. (2024). The relationship between perfectionism and self-esteem in adults: A systematic review and meta-analysis. Behavioural and Cognitive Psychotherapy, 52(6), 646–665. https://doi.org/10.1017/S1352465824000249
7. Luciano, E. C., & Orth, U. (2017). Transitions in romantic relationships and development of self-esteem. Journal of Personality and Social Psychology, 112(2), 307–328. https://doi.org/10.1037/pspp0000109
8. Neff, K. D. (2023). Self-compassion: Theory, method, research, and intervention. Annual Review of Psychology, 74, 193–218. https://doi.org/10.1146/annurev-psych-032420-031047
9. Orth, U., Erol, R. Y., & Luciano, E. C. (2018). Development of self-esteem from age 4 to 94 years: A meta-analysis of longitudinal studies. Psychological Bulletin, 144(10), 1045–1080. https://doi.org/10.1037/bul0000161
10. Orth, U., & Robins, R. W. (2022). Is high self-esteem beneficial? Revisiting a classic question. American Psychologist, 77(1), 5–17. https://doi.org/10.1037/amp0000922
11. Rais, O., & Norton, P. J. (2024). The effects of fear of evaluation as a mediator of the relationship between perfectionism and social anxiety in college students. Current Psychology, 43(48), 36921–36932. https://doi.org/10.1007/s12144-024-06978-3
12. Shafique, N., Gul, S., & Raseed, S. (2017). Perfectionism and perceived stress: The role of fear of negative evaluation. International Journal of Mental Health, 46(4), 312–326. https://doi.org/10.1080/00207411.2017.1345046
13. Stoeber, J., Smith, M. M., Saklofske, D. H., & Sherry, S. B. (2021). Perfectionism and interpersonal problems revisited. Personality and Individual Differences, 169, 110106. https://doi.org/10.1016/j.paid.2020.110106.